ACADEMIA ONE
PEER REVIEWED JOURNALS
Diversity Research: Journal of Analysis and Trends
Volume 1, Issue 3, June 2023
ISSN (E): 2810-6393
Website: https://academiaone.org/index.php/2

# The Need To Use Game Technologies In Primary Education

**Turdali Mukhtaraliyevych Sultanov**
Teacher of Chirchik State Pedagogical University

**Abstract:** Working with students who are just beginning their studies in elementary school, teaching them, and achieving their behavioral development is a huge responsibility. In this, pedagogy is important because it provides teachers with insight into best practices for classroom organization. This allows them to understand how different students learn, so they can tailor their lessons to those needs. As a result, it increases the quality of their teaching because it is well received by students.

**Key words:** primary education teachers, pedagogy, quality education, working with children, primary class, classroom environment, pedagogical advice.

# Boshlang‘Ich Ta’limda O‘Yin Texnologiyalaridan Foydalanish Zarurati

**Turdali Muxtaraliyevich Sultanov**
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich maktabda o‘qishni endi boshlayotgan o‘quvchilar bilan ishlash, ularga ta’lim berish va xulq-atvorining rivojlanishiga erishish juda katta mas’uliyat talab etadi. Bunda, pedagogika muhim ahamiyatga ega, chunki u o‘qituvchilarga sinfni tashkil qilish uchun eng yaxshi tajribalar haqida tushuncha beradi. Bu ularga turli xil o‘quvchilar qanday o‘rganishlarini tushunishga imkon beradi, shuning uchun ular o‘z darslarini ushbu ehtiyojlarga moslashtirishlari mumkin. Natijada, bu ularning o‘qitish sifatini oshiradi, chunki u talabalar tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, pedagogika, sifatli ta’lim, bolalar bilan ishlash, boshlang‘ich sinf, sinf muhiti, pedagogik maslahatlar.

**Аннотация:** Работа с учащимися, которые только начинают ходить в начальную школу, обучение и развитие поведения требует большой ответственности. В то же время педагогика важна, поскольку дает учителям представление о лучших методах организации занятий. Это позволяет им понять, как учатся разные ученики, чтобы они могли адаптировать свои уроки к этим потребностям. В результате повышается качество их преподавания, так как оно хорошо воспринимается учащимися.

**Ключевые слова:** учителя начальных классов, педагогика, качественное образование, работа с детьми, начальная школа, школьная среда, педагогический совет.

Boshlang'ich sinflarda ilk maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Maktab yoshidan boshlab bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifalari o'qish, fan asoslarini puxta o'zlashtirish bo'lib qoladi. Bolalarning o'qish faoliyati ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab qiladi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zexn, mustahkam iroda, bir qadar taqakkur, yaxshi nutq, iroda va shuning bilan birga mustaqillik, ishchanlik, batartiblik xislari bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirishga qiziqtirish va ongli tarzda yaratuvchilikka undashda o'yinlar alohida ahamiyatgaega. O'yinlar va o'yinlarga asoslangan o'quv mashg'ulotlari kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida qanday vazifalarni yechishmumkinligi pedagogik jihatdanto'g'ri belgilanishi lozim. Bunday o'yinlarni tashkil etishni imkon qadar boshlang'ich sinflardan boshlash lozim. Pedagoglar hamda psixologlarning tahkidlashicha, o'quvchining o'zi qiziqmasa, egallagan bilimlari uning hissiyotlariga ijobiy tahsir ko'rsatmaydi va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmaydi[1]. SHuningdek, o'quvchilar mazkur bilimlarni o'zlashtirish jarayonidasinfdoshlari bilan manfaatli hamkorlik o'rnata olmaydi.

O'zbek tilining izohli lug'atida «O'yin ko'ngil ochar, dam olish maqsadidaqilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun mahlum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot», deb tahriflagan.

Ensiklopedik lug'atda esa «bolalar tarbiyasi, ta'limi hamda rivojlanishidaularni kelgusi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash vositasi sifatidamuhim ahamiyatga ega», deb yozilgan[2]. Bular o'yin haqidagi umumiy tahriflar bo'lib, didaktik o'yinlarning mohiyati haqida didaktik atamalar lug'atida quyidagicha tahrif bergan. "Didaktik o'yin–o'rganilayotgan obekt hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turidir"[3].

Pedagogik atamalar lug'atida esa, "didaktik o'yinlar-ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limiy o'yinlardir"[4]. Demak, o'yin – o'quvchilarni bilish, ijod qilish, mahnaviy-intellektual jihatdan rivojlantirish vositasidir. O'yin yordamida o'quvchilar oldiga yangi olam ochiladi. O'yindan foydalanmay, o'quvchilarni to'laqonli rivojlantirish imkonsizdir. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zaro munosabatlar tizimini o'zlashtirib, hamkorlikka kirishadi, rivojlanadi, shaxs sifatida shakllanadi. O'yin

---

[1] Садуллаев Б. Ўйинлар воситасида ўқувчиларда дўстона муносабатларга асосланган ижтимоий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш тизими//. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд.: СамДУ. 2019. –Б. 11.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати Тошкент.: Фан. 1976. –Б. 232.

[3] Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. –Б. 21.

[4] Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараѐнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. –Тошкент, 2000.–Б. 52.

murakkab ijtimoiy-madaniy hamda didaktik hodisa sifatida alohida qimmatga ega bo‘lib, ko‘plab falsafiy-madaniy, pedagogik-psixologik tadqiqotlar obhekti bo‘lgan. O‘quvchilar orasida muloqot o‘rnatishda o‘yinlar alohida o‘rin egallaydi. Uning murakkabligi pedagogik jarayonda o‘yin faoliyatining o‘ziga xosligibilan belgilanadi. O‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida ularning alohida pedagogik qimmatga egaligi, erkinligi va ixtiyoriyligi ehtirof etiladi. O‘yinlar amaliy yo‘naltirilgan bo‘lib, kafolatlangan natija olishga xizmat qilishi bilan alohida pedagogik qimmatga ega.

O‘yinlar ko‘p vazifali bo‘lishi bilanbir qatorda turli-tuman mazmun va ko‘rinishga egaligi bilan ham ajralib turadi. O‘yinlarni tasniflashga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ularning asosiy qismi o‘yinlarning mavjud qismlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Ko‘plab mutaxassislar o‘yinlarni uchta katta guruhlarga bo‘lib tavsiflashgauringan: tayyor va qathiy qoidalarga asoslangan o‘yinlar; qoidalari aynan o‘yin jarayonining o‘zida shakllantiriladigan erkin o‘yinlar, qisman qathiy va qisman o‘yin jarayonida shakllanadigan qoidalarga asoslanadigan o‘yinlar[5]. Biroq yuqoridagi ko‘rsatkichlar shartli xarakterga ega bo‘lib, har bir o‘yin jarayoniga ijodiy yondashish imkoniyati mavjud. Bu jarayonda ishtirokchilar muayyan qoidalarga amal qilishi talab etiladi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar Ruyxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2018. –B. 40.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-son qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
3. Oxunjonova O. Ta’lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o‘qitish metodikasi. , ped. f. n. dissertatsiya, -T.: 2009.
4. Palagina N.N. Voobrajenie u samogo istoka. - Bishkek: «Ilim», 2002.
5. PalaginaN.N.Razvitie voobrajeniya u detey vtorogo goda jizni// Doshk. vosp. – 2003. - № 6. - S. 241.
6. Palagina N.N. Diagnostika urovnya voobrajeniya detey rannego vozrasta // Voprosq psixologii. – 1994. - № 5. - S. 12 –20.
7. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ona tili va o’qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo’llari. *Konferensiya*, *1*(1), 379-382.
8. Qarshiboyeva, X. K. (2021). Yozma savodxonlikni oshirishda boshlang’ich sinflarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. *Konferensiya*, *1*(1), 286-289.
9. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, *1*(3), 72-77.
10. Qarshiboyeva, X. K., & Muminov, Z. S. (2023). Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, *1*(3), 269-274.
11. Karimovna, K. K. (2023). Taking the Education System to a New Level with the TALIS International Assessment Program and Action Strategy. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *4*(4), 245-249.

[5] Садуллаев Б. Ўйинлар воситасида ўқувчиларда дўстона муносабатларга асосланган ижтимоий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш тизими//. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд.: СамДУ. 2019. –Б. 12.

12. Arslonovna, J. Z. (2023). Methodology for developing engineering skills of students through solving experimental problems. *Open Access Repository*, *9*(5), 210-213.
13. Jumayeva, Z. A. (2023). Engineering communications construction and installation the importance of teaching physics in the sciences. MATERİALS OF THE REPUBLİCAN SCİENTİFİC AND PRACTİCAL CONFERENCE, 1(1), 22-26.
14. Jumayeva, Z. A. (2023). Engineering communications construction and to study physics in the ways of installation importance. FIRST RENAISSANCE: ABU RAYHAN BERUNIY AN, 1(1), 15-20.
15. Jumayeva, Z. A. (2023). Fizikani kasbga yo‘naltirib o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi. 1(6), 146-148.
16. Қамбарова, Ш. А. (2021). Совет харбий қўшинлари таркибида “орқа қўшинлар” ни ташкил топишининг ижтимоий-сиёсий сабаблари. *Academic research in educational sciences*, *2*(Special Issue 1), 478-484.
17. Qambarova, S. A. (2020). Partiya tashkilotlarida kadrlarga munosabat (1917-1940 yillar misolida). *Academic research in educational sciences*, (2), 296-305.
18. Камбарова, Ш. А. (2017). История печати в Туркестане. *Молодой ученый*, (4-2), 15-16.
19. Қамбарова, Ш. А. (2014). XX асрнинг 20-30 йилларида олиб борилган маданий сиёсатнинг халқ қ имиз маънавий ҳ ҳ аётига таъсири. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 22, pp. 157-161). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
20. Камбарова, Ш. А., & Абуназаров, Л. М. (2016). " Сплошная коллективизация": понятие и меры по её проведению в средней Азии. *современные подходы к трансформации концепций государственного регулирования и управления в социально-экономических системах* (pp. 89-91).
21. Dehqonova, M. G., Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta’limda ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish. Maktab va hayot, 1(3), 31-35.
22. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
23. Qodirova, F. U., Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta’limga jalb qilingan zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari:muammo va ularning echimlari respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari, 1(1), 156-157.